

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QISHLOQ XO'JALIGI EKINLARINI SU'G'ORISHDA TOMCHILATIB SUG'ORISHNING AHAMIYATI VA O'RNI

Babamurodov Anvar Baxtiyorovich

TIQXMMI MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti.

Marketing va talabalar amaliyoti bólim boshlig'i

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7151704>

O'zbekiston qishloq xo'jaligi ekinlarini tomchilatib sug'orish tajribasini yo'lga qo'yilishi borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlarning boshlanish nuqtasini Respublikamiz Prezidentining 2020 yil 11 dekabrda PQ-4919-son qabul qilingan qarorlari negizida ko'rish mumkin. Hukumat qaroriga muvofiq, qiyalik maydonlar, sug'orish eroziyasiga duch kelgan bog'lar va uzumzorlarda ilk o'rinda tomchilatib sug'orish yo'lga qo'yilishini qabul qilingan qaror mazmuni dalolat beradi. Qishloq xo'jaligida joriy etish uchun mazkur zamonaviy suv tejaydigan texnologiya mablag'talab ekani sir emas. Lekin, suv zahiralari kam mamlakatlar uchun suv tejashning eng samarali usulidir. Hatto, Isroilda yo'lga qo'yilgan bu usul orqali meva-sabzavot yetishtirish 60-70 foizga oshgan.

O'zbekiston katta miqdordagi suv zahiralari qo'shni mamlakatlardan oqib keluvchi daryo va irmoqlardan keladi. Biroq, qo'shni davlatlar ulkan suv omborlarini qurishlari zamirida respublikamizda keladigan odatiy suv miqdorining kamayishiga olib kelmoqda. Bu esa, aholisi soninig ko'pligi, hududining aksar qismi sahrodan iborat yurtimiz uchun suv ta'minoti muammosini juqurlashib boraytotgani qishloq xo'jaligida ko'plab muammolarni keltirib chiqarayapdi.

Tomchilatib sug'orish O'zbekiston uchun hozir qanchalik dolzarbligini masalasini uzoq yillar o'rgangan Bonn universiteti olimi Jon Lamers quyidagicha tahlil qilgan: "Juda ko'p jihatlardan olgan bu usul muhim bo'lishi mumkin. Agar kelajakda suv zaxiralari kamayadi degan bashoratlar to'g'ri chiqsa, u holatda suvni tejash - bu mamlakat o'z kelajagini ta'minlashini anglatadi. Tomchilatib sug'orish juda ko'p suvni tejaydi. Ammo, fermerlar bu usulni yaxshi o'rganishi va qayerda, qancha foyda keltirishini bilishi zarur" deb ta'kidlagan. Ammo, tomchilatib sug'orish usulini joriy etish O'zbekistondek mamlakat uchun qimmatga tushmaydimi degan qabilidagi savollar va yechimini qidirayotgan ilmiy-amaliy tadqiqotlarni talab etadiga jumboqlar tug'iladi. Bu borada statistik o'rganishlardan ma'lumki tomchilatib sug'orish narxi ancha qimmatga tushishi mumkin. Sababi, ushbu usul uchun kerakli maxsus quvurlarning narxi balandligi, buning ortidan keladigan foydani ham o'ylash kerakligini anglatadi. Yana

ekiladigan ekinning bozorbardorligiga bog'liq, deylik, tomchilatib sug'orish bilan bug'doy yetishtirsangiz-da, keyin bozorda bug'doy narxi arzon bo'lib, hosilni yetishtirish uchun ketgan mehnat va xarajatni qoplamasa, unda foyda keltirmaydi.

Melioratsiya sohasida bir qator izlanishlardan bilish mumkin, zamonaviy suv tejaydigan texnologiya bo'lmish tomchilatib sug'orishga ketgan xarajatlarni o'zini qoplamasligi mumkin. Ammo O'zbekistonda asosiy yer maydoni quruq va havosi issiq mamlakatda tomchilatib sug'orish yordamida juda katta miqdordagi suvni tejalishiga erishilishi mumkin. To'g'ri O'zbekistonda zamonaviy suv tejaydigan texnologiyalarni joriy etilishi borasida hali o'lgan tajribaga ega emas. Ammo, O'zbek hukumati sekin-asta qaysi mintaqalar va ekinlarni tomchilatib sug'orish mumkinligini o'rganib borishi va uni o'rganishi uchun moliyaviy qo'llanilishi, shu jarayonda esa katta tajriba to'planishi mumkin bo'ladi.

Tomchilatib sug'orish usulining o'ziga hosligi suvni bosim ostida o'simlikkacha etkazib berishi bilan belgilanadi. Tomchilatib sug'orish usuli o'simlikning suvga bo'lgan ehtiyojiga teng miqdordagi suvni zarur muddatda uning ildiz qatlamiga etkazib berishga mo'ljallangan suv taqsimlovchi doimiy tarmoqdan iborat (1-rasm).



1-rasm. Tomchilatib sug'orish usuli

Tomchilatib sug'orish usulining boshqa sug'orish usullaridan farqli jihati shundan iboratki, mazkur sug'orish usulida tuproqning namligi va uni yaratish uchun byerilayotgan suv boshqariladi. Odatdagi egatlab sug'orish usulida, suv

egatga oqizilgandan so'ng, dalaning bir qismida tuproqning namligi haddan ortib ketsa, boshqa qismida suv yaxshi oqmaganligi tufayli tuproq yaxshi namlanmaydi. Egatlab sug'orilganda sug'orishdan keyin, tuproqda namlikni haddan ziyod ortishi ekinni suvga bo'ktirsa, sug'orishlar orasidagi vaqtning uzoqligi oqibatida, tuproq qurib ketib, o'simlikni suvsiz qoldiradi.

Tomchilatib sug'orish usulida esa, suv har bir ekinning ma'lum davrdagi ehtiyojiga mos ravishda dala bo'ylab bir tekisda byeriladi. Shunday qilib, dalaning ekin joylashgan yerlari bir xilda namlanadi. Tuproqda ortiqcha namlikning yuzaga kelishiga yo'l qo'yilmaydi. Tomchilatib sug'orish usulida: ildizlar to'ppak bo'lib o'sadi, o'simlik ildizini chuqurga yubormaydi, suv va o'g'itlarni etkazib berish osonlashadi.

Yuqorida qilingan izlanishlardan **xulosa** qilish mumkinki, zamonaviy suv tejaydigan texnologiya sifatida yurtimizning keng qamrovli hududlarida tomchilatib sug'orishni qo'llanilish o'rin ekanligini ko'rish mumkin. Ammo Isroilda yo'lga qo'yilgan bu usulni iqtisodiy ko'nikmalari bilan birgalikda o'rganilsa va kerakli ekinlar uchun qo'llanilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Рахимбаев Ф.М. “Практикум по сельскохозяйственным гидротехническим мелиорациям”. Т. Мехнат. 1991, - С 391.
2. Raximbaev F.M. va boshqalar. “Qishloq xo'jaligida sug'orish melioratsiyasi”. Darslik. T. “Mehnat”, 1994, 327 bet.
3. Xamidov M.X., Suvanov B.U., Isabaev K.T. Sug'orish melioratsiyasi, Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. –T.: TIQXMMI, 2019: -292 b.
4. Xamidov M.X., Begmatov I.A., Isaev S.X., Mamatov S.A. “Suv tejamkor sug'orish texnologiyalari” O'quv qo'llanma. T., TIMI bosmaxonasi, 2015. 243 bet.
5. Xamidov M.X., Botirov Sh.Ch., Suvanov B.U., Yulchiye D.G. “Suv resurslarini o'lchovi va vositalar” O'quv qo'llanma. T.: TIQXMMI, 2019, 180.
6. Norqulov U., Shyeraliev H. “Qishloq xo'jaligi melioratsiyasi”. Darslik. T. “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2003, 204 bet.
7. <https://latifundist.com>.
8. <https://www.water.gov.uz>. 282 M
9. <https://lex.uz>.